

---

**Ma'rupov Akmaljon Akbarovich**, b.f.f.d (PhD) Farg'ona davlat universiteti  
[0000-0002-5688-4998](mailto:marupovakmaljon82@gmail.com) Email: [marupovakmaljon82@gmail.com](mailto:marupovakmaljon82@gmail.com)



---

**O'ZBEKISTONDA UZUNMO'YLOV QO'NG'IZLAR (COLEOPTERA:  
CERAMBYCIDAE) NING TUR XILMA-XILLIGI VA TAKSONOMIK  
TUZILISHI**

<https://zenodo.org/records/18841304>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston hududida tarqalgan uzunmo'ylov qo'ng'izlar (Coleoptera: Cerambycidae) ning zamonaviy taksonomik tarkibi va tur xilma-xilligi tahlil qilindi. Xalqaro kataloglar, ilmiy adabiyotlar hamda 2011–2023-yillarda olib borilgan dala kuzatuvlari asosida respublika hududida 6 kenja oila, 20 triba, 34 urug' va 23 kenja urug'ga mansub jami 86 tur va kenja tur qayd etildi. Kenja oilalar kesimida Lamiinae va Cerambycinae guruhlari ustunlik qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston entomofaunasining taksonomik tuzilishini aniqlashtirish, bioxilma-xillikni baholash hamda dendrofag va ksilofag zararkunanda turlar monitoringini tashkil etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar iboralar:** uzunmo'ylov qo'ng'izlar, tur xilma-xilligi, taksonomik tuzilish, Cerambycidae, bioxilma-xillik, dendrofag hasharotlar, ksilofag zararkunandalar.

**SPECIES DIVERSITY AND TAXONOMIC STRUCTURE OF LONGHORN  
BEETLES (COLEOPTERA: CERAMBYCIDAE) IN UZBEKISTAN**

**Abstract:** This study presents an updated analysis of the taxonomic structure and species diversity of longhorn beetles (Coleoptera: Cerambycidae) in Uzbekistan. Based on international databases, published literature, and field surveys conducted between 2011 and 2023, a total of 86 species and subspecies belonging to 6 subfamilies, 20 tribes, 34 genera, and 23 subgenera were recorded. The subfamilies Lamiinae and Cerambycinae were found to be dominant in terms of species richness. The results contribute to a better understanding of the taxonomic composition of the entomofauna of Uzbekistan and provide a scientific basis for biodiversity assessment and monitoring of dendrophagous and xylophagous pest species.

**Key words and expressions:** longhorn beetles, species diversity, taxonomic structure, Cerambycidae, biodiversity, dendrophagous insects, xylophagous pests.

**ТАКСОНОМИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА И ВИДОВОЕ РАЗНООБРАЗИЕ  
УСАЧЕЙ (COLEOPTERA: CERAMBYCIDAE) УЗБЕКИСТАНА**

**Аннотация:** В статье представлен анализ таксономической структуры и видового разнообразия усачей (Coleoptera: Cerambycidae) Узбекистана. На основе

международных каталогов, научных публикаций и полевых исследований 2011–2023 гг. на территории страны выявлено 86 видов и подвигов, относящихся к 6 подсемействам, 20 трибам, 34 родам и 23 подродам. Установлено доминирование подсемейств Lamiinae и Cerambycinae. Полученные результаты уточняют таксономическую структуру энтомофауны Узбекистана и имеют важное значение для оценки биоразнообразия, а также мониторинга дендрофагов и ксилофагов - вредителей древесной растительности.

**Ключевые слова и выражения:** усачи, видовое разнообразие, таксономическая структура, Cerambycidae, биоразнообразие, дендрофаги, ксилофаги.

**Kirish.**

Qattiqqanotlilar turkumi vakillari ayni vaqtda Yer yuzidagi ma'lum bo'lgan hayvonlarning deyarli chorak qismini tashkil qiladi [4]. Ushbu hasharotlarning xilma-xilligi va turli geografik mintaqalar bo'yab tarqalish qonuniyatlarini o'rganish muhim bo'lib, bu antropogen omil sabab biologik xilma-xillikning yoppasiga qirilib ketish davrida navbatdagi ishlarni rejalashtirishda kalit vazifasini o'tashi mumkin [5].

Uzunmo'ylov qo'ng'izlar (Cerambycidae) qattiqqanotlilarning eng yirik oilalaridan biri bo'lib, bugungi kunda ularning 38 000 dan ortiq turi mavjud [6]. Ushbu qattiqqanotlilar oilasining Markaziy Osiyodagi faunasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, Tojikistonda ularning 60 turi uchrashi ma'lum bo'lsa, Qozog'istonning janubiy va sharqiy qismida ularning 78 turi qayd etilgan [2,3].

O'zbekiston hasharotlariga bag'ishlangan bir qator ishlarda uzunmo'ylov qo'ng'izlar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, ularning mamlakat hududidagi umumiy tur soni borasida aniq ma'lumotlar mavjud emas [1].

Mazkur maqolada O'zbekiston hududida uchrovchi uzunmo'ylov qo'ng'izlar tur sonini ularning yuqori taksonomik o'rinlari bilan birgalikda keltirish maqsad qilib olindi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

O'zbekiston hududidagi uzunmo'ylov qo'ng'izlarning tur tarkibini aniqlashda xalqaro e'tirof etilgan "Titan database on Cerambycidae or Longhorn beetles" (<http://titan.gbif.fr/index.html>), "Lamiines of the World" (<https://lamiinae.org/about.html>), "Cerambycidae: Subfamily Prioninae of the World" (<http://www.cerambycidae.cz/home-page.html>), "Catalogue of Palaearctic Chrysomeloidea (Vesperidae, Disteniidae, Cerambycidae)" (<http://www.cerambycidae.net/>) kabi kataloglardan hamda ular tarkibidagi yuzlab ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

Bundan tashqari, Farg'ona vodiysining 50 ga yaqin nuqtasidan yig'ilgan namunalarda uzunmo'ylov qo'ng'izlar tur tarkibini aniqlash uchun asos bo'ldi.

**Natija va muhokama.**

Qator rasmiy xalqaro kataloglar va adabiyotlar tahlili hamda shaxsiy kuzatuvlar asosida O'zbekiston hududida uchrovchi uzunmo'ylov qo'ng'izlarning tur tarkibi keltirildi. Turlar ro'yxati kenja oila va triba tarkibida alifbo tartibida berilgan.

1-jadval

O'zbekistonda uchrovchi uzunmo'ylov qo'ng'izlar (Cerambycidae) taksonomik tarkibi va ulushi

Kenja oila	T riba	U rug'	K enja urug'	T ur	K enja tur	Jami takson (tur+kenja)	U lushi (%)

							tur)	
Apatophy seinae	1	1	2	3	0	3	3	.5 %
Cerambyc inae	9	5	6	2	1	26	3	0.2 %
Lamiinae	6	8	1	2	9	35	4	0.7 %
Lepturina e	2	4	2	5	2	7	8	.1 %
Prioninae	1	5	0	8	6	14	1	6.3 %
Spondylin ae	1	1	0	1	0	1	1	.2 %
<b>Jami</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>6</b>	<b>1</b>	<b>86</b>	<b>1</b>	<b>100 %</b>
	<b>0</b>	<b>4</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>			

Kenja oilalar kesimida qaralganda, Lamiinae kenja oilasi O'zbekistondagi umumiy uzunmo'ylov qo'ng'izlarning 40,7 % ini tashkil etadi (1-jadval). Undan keyin Cerambycinae kenja oilasi 25 tur va 1 kenja tur (30,2 %) bilan ikkinchi o'rinni egallaydi. Qolgan 4 kenja oila - Prioninae, Lepturinae, Apatophyseinae va Spondylinae mos ravishda 14 (16,3 %), 7 (8,1 %), 3 (3,5 %) va 1 (1,2 %) tur va kenja turlarni o'z ichiga oladi (1-jadval).

Olib borilgan tadqiqotlar, rasmiy xalqaro kataloglar hamda shaxsiy kuzatuvlar asosida O'zbekiston hududida uzunmo'ylov qo'ng'izlar - Cerambycidae oilasiga mansub 6 kenja oila, 20 triba, 34 urug' va 23 kenja urug'dan iborat jami 68 tur hamda 18 kenja tur mavjudligi aniqlandi. Keltirilgan ro'yxat respublika hududida mazkur oilaning taksonomik tarkibi nisbatan boy va xilma-xil ekanini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kenja oilalar orasida turlar soni jihatidan Lamiinae (26 tur va 9 kenja tur) yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu kenja oila vakillari asosan cho'l, adir va tog'oldi hududlarida, shuningdek, madaniy agrotsenozlarda keng tarqalgan bo'lib, o'simlik poyasi va ildiz qismlarida rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Agapanthiini va Phytoeciini tribalari tarkibidagi turlar sonining ko'pligi hudud florasining xilma-xilligi bilan bevosita bog'liq.

Ikkinchi o'rinda Cerambycinae (25 tur va 1 kenja tur) turadi. Bu kenja oila tarkibida Callidiini, Clytini va Molorchini kabi tribalarning yaxshi ifodalanganligi O'zbekiston hududida yog'ochli va butali o'simliklar bilan bog'liq ekotizimlarning mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim turlar sinantrop muhitga moslashgan bo'lib, antropogen omillar ta'sirida kengayib borayotgan arealga ega.

Prioninae kenja oilasi 8 tur va 6 kenja tur bilan nisbatan kamroq xilma-xillikka ega bo'lsa-da, yirik tanali va kserofil xususiyatga ega turlar bilan xarakterlanadi. Ular asosan cho'l va yarim cho'l hududlarida uchraydi hamda yog'ochli o'simliklarning ildiz va tanasida rivojlanadi.

Lepturinae (5 tur va 2 kenja tur) vakillari asosan tog' va tog'oldi hududlariga xos bo'lib, ularning uchrashi namroq va o'rmonzor biotoplar mavjudligi bilan bog'liq. Bu

holat respublikaning sharqiy va janubi-sharqiy hududlarida relikt va tog' ekotizimlari saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Apatophyseinae (3 tur) va Spondylinae (1 tur) kenja oilalari kam sonli bo'lib, ular respublika faunasida tor tarqalgan yoki relikt xarakterdagi guruhlar sifatida namoyon bo'ladi.

Turlar ro'yxatining alifbo tartibida, kenja oila va triba kesimida berilishi hududiy faunaning tizimli tahlilini ta'minlaydi. Ayrim turlarning bir necha kenja turlarga ega ekanligi (masalan, Phytoecia va Psilotarsus urug'lari vakillari) O'zbekiston hududida geografik va ekologik differensiasiya jarayonlari faol kechganini ko'rsatadi. Bu esa landshaftlarning kontrastligi — cho'l, adir, tog' va vodiy ekotizimlarining almashinuvi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, aniqlangan tarkib Markaziy Osiyo mintaqasi uchun xos bo'lgan kserofil va tog' elementlarining uyg'unlashganligini namoyish etadi. Turlar sonining yuqoriligi respublikaning biogeografik jihatdan Turon provinsiyasi hamda tog'li hududlar kesishgan mintaqada joylashganligi bilan bog'liq.

### **Xulosa**

O'zbekiston hududida Cerambycidae oilasi vakillari yuqori taksonomik xilma-xillik bilan tavsiflanadi. Eng boy kenja oilalar sifatida Lamiinae va Cerambycinae ajralib turadi. Turlar tarkibi hududning tabiiy-geografik sharoitlari, landshaftlar xilma-xilligi va o'simlik qoplami bilan chambarchas bog'liq.

Olingan natijalar respublika entomofaunasining zamonaviy holatini aks ettiradi hamda kelgusida bioxilma-xillikni muhofaza qilish, kamyob va endem turlarni aniqlash hamda monitoring tadqiqotlarini olib borishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yaxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. – Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1962. – 696 b.

2. Karpiński L., Szczepański W.T., Plewa R., Walczak M., Hilszczański J., Kruszelnicki L., Łoś K., Jaworski T., Bidas M., Tarwacki G. New data on the distribution, biology and ecology of longhorn beetles from the area of South and East Kazakhstan (Coleoptera, Cerambycidae). ZooKeys, 2018. Vol. 805, P. 59–126.

3. Kadyrov A.Kh., Karpiński L., Szczepański W.T., Taszakowski A., Walczak M. New data on distribution, biology and ecology of longhorn beetles from the area of west Tajikistan (Coleoptera, Cerambycidae). ZooKeys, 2016. Vol. 606, P. 41–64.

4. Rossa R., Goczał J. Global diversity and distribution of longhorn beetles (Coleoptera: Cerambycidae). The European Zoological Journal, 2021. Vol. 88(1), P. 289–302.

5. Ceballos G., Ehrlich P.R., Barnosky A.D., García A., Pringle R.M., Palmer T.M. Accelerated modern human-induced species losses: Entering the sixth mass extinction. Science Advances, 2015. Vol. 1(5), e1400253.

5. Tavakilian G., Chevillotte H. Base de données Titan sur les Cerambycides ou Longicornes. 2022. Available: <http://titan.gbif.fr>. Accessed June 2023.